



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz



KONSTITUTSIYA – MENIKI, SENIKI, BIZNIKI!

YANGILANAYOTGAN KONSTITUTSIYA – YANGI IMKONIYATLAR ESHIGI

Bolaligim Qo'shrabot tumanining tog'lar orasida joylashgan Quvkalla qishlog'iда o'tgan. Otam o'qituvchi edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, esimni taniganimdan o'qish va yozishga qiziqishim katta bo'lgan. O'sha paytlarda bog'cha nima ekanligini bilmaganman ham. Sababi qishlog'iimizda eski maktabdan boshqa ta'lum tashkiloti yo'q edi. Keyingi yillarda Quvkallaning o'zida 2 ta yangi maktab binosi qad rostladi. Maktabgacha ta'lum tashkiloti ochildi. Yo'llar kengaytirilib, asfaltlandi. Yangi ko'priklar qurildi. Hududda bir paytlar ko'rimsiz bo'lgan "Xo'janonber ota" ziyoratgohi obod etildi.

Bunga yaqinda qishlog'iimizda o'tkazilgan "Konstitutsiya meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya o'zimizniki" shiori ostida targ'ibot tadbirida ishtirok etган mehnmonlar – viloyat hokimligi vakillari, Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilar, shoir va yozuvchilar ham guvoh bo'ldi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar yangilana-yotgan konstitutiya olis hududlar aholisiga bundan da ko'proq imkoniyatlar yaratilishi uchun xizmat qilishini ta'kidlab, qishloqdagi saylov yoshidagi fuqarolarni referendumda faol ishtirok etishga chaqirdi.

- Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan tanishib chiqdim, - deydi 70-maktab direktori

Shokir Qo'chqorov. – Unda "Davlat uzluksi ta'lum tizimi, uning har xil turlari va shakkllari, davlat va nodavlat ta'lum tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lum va tarbiyani rivojlantrish uchun shart-sharoitlar yaratadi", deb belgilab qo'yilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, yurtimizda farzandlarimizning ta'lum-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor yana-da kuchayadi.

Tadbir bayramona tarzda, taniqli san'atkorlar va quvvallalik yosh iste'dod egalarining chiqishlari bilan davom etdi.

Do'stbek SULAYMONOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.



Kattago'rg'on shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumida ham "Konstitutsiya meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya o'zimizniki!" shiori ostida targ'ibot tadbiri o'tkazildi. Unda 450 nafar pedagog xodimlar va talabalar ishtirok etdi.

Tohir NORQULOV o'lgan suratlari.

DAVLAT DASTURIDA BELGILANISHICHA...

Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantrish, intensiv bog'lar maydonini 1,5 baravar va issiqxonalar ni 1,2 baravar ko'paytirish maqsadida joriy yil viloyatda:

- sertifikatlangan 12 million 971 ming dona meva ko'chatlari bilan ta'minlash;
- 8 ming hektar tokzor va 3 ming hektar yangi bog'lar barpo etish va buning uchun 12 million 971 ming dona ko'chatlar yetkazib berish;
- 27.1 hektar maydonda issiqxonalar tashkili etish;
- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 167 million dollarga yetkazish choralarini ko'rish belgilangan.

AMALDAGI KONSTITUTSIYADA

22-modda.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
REFERENDUMI
2023

23-modda.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas.

Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantrish to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qiladi.

2023-yil 4-aprel, seshanba,
40 (23.761)-son

KUN
HIKMATI

Hamma o'z ishini qilmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Har bir kishidan mas'uliyatni talab qilish kerak



Kun fidoyisi

*Taxmina
Ikromova*
**JAHON KUBOGI
SOVRINDORI!**

Bolgariyaning Sofiya shahrida badiiy gimnastika bo'yicha jahon kubogi bahslari yakuniga yetdi.

Unda ishtiroy etgan samarcandlik yosh gimnastikachi Taxmina Ikromova musobaqaning ilk kunida ko'pkurash yo'nalishida shohsupaga ko'tarildi va to'rt mashq yakuni bo'yicha 124.550 ball jamg'arib, bronza medalgina sazovor bo'ldi.

Taxmina musobaqanining so'nggi kunida tasmadagi mashq yo'nalishida 30.900 ball bilan oltin, to'pdagi dasturda esa 31.750 ball jamg'arib, bronza medalini qo'liga kiritdi.

Bugunning gapi

56 nafar bola oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanmoqda

Bugungi kunda viloyatimizda to'qqizta oilaviy bolalar uyi faoliyat ko'rsatmoqda. Xususan, Samarqand shahrida uchta, Past Darg'om tumanida ikkita, Oqdaryo, Samarqand, Kat-taqa'rg'on, Paxtachi tumanlarida bittadan shunday oilalar mavjud. Ularda 56 nafar tarbiyalanuvchi voyaga yetmoqda.

Mazruk oilaviy bolalar uylari o'tgan yilning sentabr oyida tashkil etilgan bo'lib, patronat oilalar doimiy ravishda tegishli tashkilotlar tomonidan nazorat qilingan.

- Har bir ola bolalarni qabul qilish oldidan maxsus o'quv kurslarida o'qib, tayyorgarlikdan o'tgan, - deydi viloyat hokimligi bolalarni himoya qilish masalalarini kotibiyat mudiri Shabzob Quvvatov. - Oilaga bolalarni qabul qilib oilayotgan kishilar ota-onalik maqomiga ega bo'lsa-da, o'g'il-qizlarni aniq me'yordan asosida parvarishlash lozim. Binobarin, oilaviy bolalar uylarini tashkil etishdan asosiy maqsad bolalarning oilaviy muhitda boshqa tengoshshlari kabi o'shishni ta'minlash, jamiyatdan ajralib qolishining oldini olish maqsadi ko'zlangan.

Oilaviy bolalar uylari tegishli tashkilotlar tomonidan har oyda ikki marotaba o'rganiladi. Bolalar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, mavjud sharot haqida ulardan so'raladi. Hozircha bolalar ta'lum-tarbiyasi bilan bog'liq jarayon yuzasidan jiddiy shikoyatlar bo'lgani yo'q. Mabodo bolalar o'zlar yashayotgan oildan norozi bo'lsa, murojaat etishlari mumkin. Yaqinda shunday vaziyat bo'lganda bir bolani oildan olib, boshqa ijtimoiy muassasa joylashtirdik.

Xorazmdagi voqealari oilaviy bolalar

uyular tashkil etilmagan, bolalar Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan paytda sodir bo'lgan. Shunga qaramay, bu holatdan patronat ota-onalarni xabardor qilib, ogohlilik oshirgandik. Inson omili bor joyda ehtiyyotkorlik, doimiy kuzatuv foydadan xoli bo'lmaydi, albatta.

Ehtimol, shu kabi holatlarning oldini olish uchun, qolaversa, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda yurtimizda oilaviy bolalar uylari tashkil etish amaliyoti qo'llanilangandir. Aytish joizki, Mehrbonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ollalarga berilishi ularning kayfiyatini, salomatligiga ijobji ta'sir etayotgani kuzatilmoqda.

Oilaviy bolalar uylari yetim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oliga tarbiyaga olishni istagan fuqarolar tomonidan yuridik shaxs maqomisz, tegishli tuman (shahar) hokimining qarori asosida tashkil etiladi. Oilaviy bolalar uygidi tarbiyalanuvchilar soni kamida 3 nafarni, ko'pi bilan 5 nafarni tashkil etishi lozim. Bunda oilaviy bolalar uyni tashkil qilgan fuqarolarining o'z farzandlari hamda tarbiyalanuvchilarining umumiyo soni 8 nafardan oshmasligi kerak.

Oilaviy bolalar uylarini tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatlari tutgatgan fuqarolar tomonidan tashkil qilishga ruxsat etiladi.

Gulruh MO'MINOVA.

Dolzarb mavzu



**MILLAT QADDINI
BUKMANG!**

Yurtimizda so'nggi yillarda xalq ta'lumi tizimida bir qator xorijiy va milliy ta'lum modellari sinovdan o'tkazildi. O'quv darsliklari yangi va zamонави ko'rinish oldi. Dars soatlari, dars o'tishdagи pedagogik texnologiya va metodikalar hamda o'quv predmetlari tubdan yangilanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lum fanlari va fan predmetlari, xorijiy til dars soatlari eskicha, almisodqan dolgan, deb hisoblangan uslublarдан voz kechgan holda, tamomila yangi usulda o'tila boshlandi. Har qanday islohotning ijobji va salbiy jihatlari bo'lganidek, bugungi kunda boshlang'ich ta'lumda qo'llaniladigan o'quv adabiyotlari va darsliklarining shakli va vazni bilan bog'liq shunday muammo paydo bo'ldi, afsuski, bu masalaga hali hech bir soha mutasaddisi muammo sifatida qarayotgan emas.

2022-yilning noyabr oyida olim bilan Samarqand shahri Sartepaga massividagi ijara kvartiradan endigina ta'mirdan chiqqan, Islohot ko'chasida joylashgan yangi uyg'a ko'chib o'tdi. Qizlarim o'qiydigan Sartepaga massividagi 55-maktab esa shaharning boshqa chekkasiga ko'chib o'tganligimiz tuyafli bizdan ancha uzoq (6,5 kilometr)da qoldi.

(Davomi 4-sahifada) >>>

AMALDAGI KONSTITUTSIYADA

22-modda.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASIDA

23-modda.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas.

Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantrish to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qiladi.

Samarqand shahrida kecha yoqqan kuchli yomg'ir ko'chilaridagi ariq va zovurlar to'lib, yo'llarni suv bosdi.



Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi ishchi-xodimlari ariqlarni tozalab, ko'chalarni suvdan tozalashga jalb qilindi.



- Chuquryo'l va Gagarin ko'chalarida to'planib qolgan yomg'ir suvlarini mashinalar tirbandligiga sabab bo'ldi, - deydi shahar obodonlashtirish boshqarmasi mutaxassis Shuhrat Kolmo'minov.

- Qisqa vaqtida barcha ariq va zovurlar chiqindildardan tozalanib, suv yo'llari oshib yuborildi.

B.MUSTANOV olgan suratlar.

Alloh taolo insonga bergan ne'matlarning ichida eng qimmatli va muhimlaridan biri – hayot, tiriklik ne'matidir. Alloh inson-ga hayot ne'matini, bu dunyoda yashash huquqini berar ekan, bu omonat - hayotni asrab, uni muhofaza etishga buyuradi. Jamiyatimizda oz bo'lsa-da, uchrayotgan musibatlardan biri bu o'z joniga qasd qilishdir.

Alloh taolo Niso surasida "O'zingizni o'zingiz o'idirmang! Albatta, Alloh sizlarga rahmidir" degan. Insonga hayot ne'matini Alloh bergan ekan, uning hayotini faqat O'zijina olishga haqidir. Hattotki, o'sha yashash huquqi berilgan kishi o'z hayotiga o'zi suiqasd qila olmaydi. Diniimizda birovni o'ldirish qanchalik og'ir gunoh bo'lsa, o'zini o'zi o'ldirish ham shunchalik og'ir jinoyatdir.

Inson o'z joniga suiqasd qilishiga kishilarning dindan uzoqlashishi, ma'rifsizlik, to'qchilik, yo'qchilik, shahvoni, nafsoniy sevgi, o'z joniga qasd qilishni muammoning yechimi sifatida ko'rish, o'limning haqiqati, qabr azobi, oxirat, qayta tirlish, qiyomat va do'zaxdag'i azob-uqubatlardan bexabarolik, ruhiy xastalik kabi omillar sabab bo'ladi.

Bu illatdan saqlanish uchun farzandlarimizga dinimiz asoslari, ibodatning ma'nosini, gunoh-savob, halol-haromni oildan o'rgatib borishimiz kerak. Ularning oldiga yuksak marralar va maqsadlar qo'yib, o'sha tomoniga yetaklashimiz, kerakli yordamni berishimiz zarur.

Biror qiyinchilikdan qutulish yoki kimdandir norozi bo'lib, o'z joniga qasd qilish masalaning

O'z qo'llaringiz bilan o'zingizni halokatga tashlamangiz!

yechimi emas. Muammolar shu bilan hal bo'lib qolmaydi. Aksinchas, gunohkor bo'lib, oxiratda azooba duchor bo'lib, ota-onasi va yaqinlarini qattiq qayg'uda qoldiradi. Bu gunohning yomonligini bildirish uchun Payg'ambarimiz sollallohu alaihy vasallam o'tgan qavmlar hayotidan ham misol keltirdilar:

"Sizlardan oldin o'tgan qavm orasida bir yaralangan kimsa bor edi. U og'riqqa chiday olmasdan, qo'liga pichoq olib, yaralangan qo'ini kesdi. Natijada u qon yo'qotish tuyafat etdi. Shunda Alloh taolo: "Bandom o'zini-o'zi o'ldirib, meningunga bergan umrimga shukr qilmay, shoshildi. Shuning uchun unga jannatni harom qildim", - dedi" (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyoti).

Mo'min-musulmon kishi hayot qiyinchiliklari dunyoning sinovi ekani, har bir musibat, hatto tikanning kirishi ham ajrsiz qolmasligini biladi. Alisher Navoiy o'z hikmatlarida: "Sakson yil yashash uchun sakson yillik sabr kerak", - deganlar. Demak, inson balo va musibatlarga qarshi sabrni qalqon qilib olishi kerak. Chunki dinimiz ta'limoti bo'yicha dunyoda yuz beradi-gan barcha ishlarni Alloh taolonning xohish-irodasi bilan bo'ladi. Navf al-Bakoliydan shunday

rivoyat keltiriladi. Mo'min bilan kofir kimsa baliq oviga chiqibdi. Kofir to'rnini suvga tashlar ekan, o'zingin olilari nomini tilga olibdi. Mo'min esa Alloh azza ja jallaning buyuk nomini aytilib, to'rnini suvga tashlabdi. Kofir har to'rnini tortganida unga baliq to'lib chiqar, mo'minniki esa bo'sh qaytaridi. Ov niyosagiga yetar ekan kofirning qayg'i baliqqa to'idi. Mo'min kishi esa oxirgi tortganida biringa baliqni tutishga muvaffaq bo'ldi. Ammo u ham bir silkinish bilan qo'lidan chiqib, suvga sho'ng'ib ketdi va u quruq qo'l bilan uygaga qaytdi. Mo'min kishiga vakil qilingan farishasi Alloh subhanhu va taolodan buning sir-sanoatini so'radi. Chunki mo'min kishi Alloha iymon keltirgan, unga doim toat va ibodatda bo'ladi. Kofirning esa na imonya va na toati bor. Shunday bo'lsa-da, u ilohlarining nomini tilga olib boshlagan ovi barakali bo'ldi. Mo'min esa ovdan quruq qaytdi. Alloh taolo shunda mo'min kishining bu ishlarga qilgan sabri uchun unga jannatda hozirlab qo'yan joyini ko'rsatdi. Kofirning ham oxiratdagi manzili unga ko'rsatildi. Demak, bu dunyoda qaysi bir mo'min kishiga biror musibat va sinov yetsayu, unga sabr qilsa, buning mukofoti oxiratda faqat va faqat jannat ekan.

Inson umriga zavol bo'ladigan yana bir illat

O'zbekistonning eng noyob landshaftlaridan biri to'qay o'rmonlari hisoblanadi. To'qaylar O'zbekistonning eng yirik daryolari qirg'olqlari ensiz tasma shaklida joylashib, bebabu biotoplar, ya'ni birinchi navbatda toza havo bilan ta'minlanishdan saqlaydi, sunving tozaligini ta'minlaydi hamda tabiatda namlik almashinuvida asosiy rol o'ynaydi. Yurtimizda ucta to'qayli maydonlarda saqlanib qolgan tabiiy hududlar bor va ulardan biri muhofaza etiladigan Zarafshon milliy tabiat bog'i idir.

Zarafshon milliy tabiat bog'i O'zbekistondagi yagona o'simlik parvarishlanadi

Maydoni 2426,4 hektar bo'lgan milliy tabiat bog'iining 1478 gektari o'rmon bilan qoplangan. Bu bog' asosan yo'qolib borayotgan kenja tur Zarafshon qirg'ovuli sonini ko'paytirish va himoya olish, qimmatbafo dorivor o'simlik hisoblangan chakanda hamda to'qay landshaftlarini himoya qilish maqsadida tashkil etildi. Hozir bog'da 300 ga yaqin o'simlik turlari o'sadi. Bular turang'il, jyda, chakanda, echkitol, majnuntol, suvtol, yulg'un, qizil do'lana, jing'il, shirinmiya, na'matak, zirk, kendir, qamish va boshqalar. Qo'rixonada 80 dan ziyod dorivor va 23 tur texnik o'simliklari o'sishi aniqlangan, 73 tur zamburug', 33 tur suv o'tlari bor. Bugungi kunda milliy bog' hududida o'simliklarning vegetativ davri kuzatilmoqda.

Birgina turang'il Zarafshon vohasida yo'qolib ketish xavfi kuchi bo'lgan tur bo'lib, bog'da 10 gektgara yaqin maydonda saqlanib qolgan. Shuningdek, tabiat bog'i O'zbekistonning tekisliklari chakanda saqlanib qolgan yagona joy. Bog'dagi uning chakalakkali 64 gektarni tashkil etadi.

Bundan tashqari, milliy bog'da "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simlik turlaridan Kesselring savrinjoni, Oshlovchi totim (sirka daraxti) ni va 200 turdan ziyod qushlarni uchratish mumkin. Bular oq qanotli qizilishton, gov kaptar, qorashaqshaq, katta oq qarqara, haqqush va boshqalar uchrayıdi.

Zarafshon milliy tabiat bog'i axborot xizmati.

Insoniyat murakkab va katta ilmiy kashfiyotlar asrida yashayapti. Fan-teknika rivojanib, kundalik hayotimizga zamonaliv axborot texnologiyalari kirib keldi.

Afsuski, bugun aholi orasida yurak qon-tomir, qandli diabet, insult, saraton, va boshqa kasalliklar ko'payib, eng achinarli, yasharib bormoqda.

Xo'sh, asr epidemiyasiga aylangan ushbu kasalliklarning sabablarini nimada? Ba'zilar bunday ahvolga hozirgi turmushning yugur-yugur va tashvishlari, ko'pligi yashash muhitining tobora kuchayilbo'rayotgan hissiyotli ta'siri sabab bo'lmoga, deb hisoblaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa hammasi noto'g'ri ovqatlanish tufayli deb isbotlashga urinishadi. Har kim o'zicha xaq. Ammo shunisi aniqli, biz tabiat bergen cheksiz imkoniyatlardan juda oz yoki umuman foydalansaymiz. Tadqiqotlar civilizatsiya xastaligining haqiqiy sababi - gipodinamika (kam harakat hayot tarzi) ekanligini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarish rivojlangan, mashinalar keng ko'lamda qo'llanadigan hozirgi jamiyatdagi turmush sharoitida odam organizmiga tushadigan jismoniy yuklama ancha kamaygan. Haqiqatan ham, yuz yil muqaddam inson ishning 95 foizini o'z kuchi bilan bajargan bo'sla, hozir shu hajmida ishni mashinalar bajaryapti. Odam organizmining 35-40 foizi muskuldan tashkil topganini deyarli hamma boshqa tizimlar mushaklarni harakatga keltirish uchun xizmat qilishini nazarda tutsak, hozirgi ahvol o'z-o'zidan ravshanlashadi.

Abu Ali Ibn Sino salomatlikni saqlashda jismoniy mashqlarning o'rni muhimligini ta'kidlagan holda "Birinchi jismoniy mashqlar, undan keyin to'g'ri ovqatlan-

RUH va AQL QAL'ASINI EGALLASH UCHUN



ish tartibi va uyqu" deb uqtirgan. Uning mashhur tib qonunlari yana shunday jumlalar uchraydi "Me'yorida va o'z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan inson hech qanday davolanishga muhetoj emas!"

Darhaqiqat, jismoniy mashqlar sog'liqni saqlashning asosiy usuli bo'lib, ulardan chuqur nafas olishga majbur etadi, chuqur nafas olish tanamiz uchun ham, ruhiyatimiz uchun ham foydalidir. Faylasuf Mirzo Bedil ta'biri bilan aytganda, ruh va aql qal'asini egallash uchun jismoniy tarbiya bilan shug'ullanib turish lozimdir. Inson tanasi, qoni harakatda bo'lsa, fikri, g'oya va tafakkuri ham harakatda bo'ladi. Jismoniy faoliyi davrida inson miyasi o'ziga xos tabiyyot moddalar (endorfinlar) ishlash chiqiladi va bunday moddalar kishiga lazzat, zavq baxsh etadi. Demak, jismoniy harakatlar insonga baxt hisini ato etadi.

Shuning uchun ham bugun jismoniy faoliyini kuchaytirishga davlat va jamiyat miyoqida ijtimoiy ahamiyatiga ega masala sifatida qaratilmoqda.

Kam harakatlik insonlarning semirib ketishiga, qonda xolesterin miqdorining oshishiga, bo'g'imirlarda tuz moddalar cho'kisiga va umrning qisqarishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jismoniy faoliy bilan birga to'g'ri ovqatlanish nafaqat ortiqcha vaznni kamaytiradi, balki arterial qon bosimini tushiradi, qondagi qand miqdorini kamaytiradi. Bu diabiga chalangan bemorlar uchun juda muhim, shuningdek, yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, erta qarishning oldini oladi hamda miokard infarkt va insult kabi kasalliklarni bartaraf etadi.

O'ktam NURULLAYEV,
viloyat OITSGa qarshi kurashish markazi olyi toifali shifokori.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Boltaboy MAMARASULOV

Fidoy inson, qalam o'tkiz faxyri, journalist Boltaboy Mamarasulov 81 yoshida vafot etdi.

B.Mamarasulov 1942-yilda Nurota tumanı Qorakissa qishlog'ida tug'ilgandi. O'rta maktabni bitirgach, dastlab "2-Qo'shrabot" ijara xo'jaligida mehnat qildi. So'ngra, Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetida o'diqi. Harbiy xizmatni o'tab kelgandan so'ng, 1965-yilden Nurota tumanida chiqadigan "Ilg'or chorvador" gazetasida ishlay boshladи. Mazkur tahririyatda adabiy xodim, bo'lim muduri, mas'ul kotib vazifalardan faoliyat ko'rsatdi. Qo'shrabot tumanish tashkil etilgach, tuman partiya qo'mitasida mas'ul vazifalarda ishladi. Tumanning "Istiqbol sari" gazetasiga muharrirlik qildi.

Boltaboy Mamarasulov ustoz journalist safitida Qo'shrabotdan ko'plab ijodkorlar yetishib chiqishiga hissa qo'shdi, yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatib, ularga journalistika



xayriya jamg'armasi raisi lavozimida ham samarali ishladi. So'ngra yana gazeta tahririyatiga qaytbay, 2014-yilgacha muharrirlik qildi.

U qaerda, qaysi vazifadagi ishlamasin, hamisha mehnat-sevarligi va mas'uliyatligi, faol va tashabbuskorligi bilan jamao e'tiborini qozondi.

Halol va vijdonan ishlab, qo'shrabotliklar qalbidan joy oldi. Shu sababli hokimlik tizimida ishlaganida ham, xalq valiki safitada tuman kengashi deputati bo'lganida ham qishloq ahlasi muammollarni ko'tarib chiqish va hal etishga astoydi harakar qildi. Uning tashabbusi bilan tumanda ko'p ezgu ishlari, bonyodkorliklar amalga oshirildi.

Boltaboy Mamarasulov ustoz journalist safitida Qo'shrabotdan ko'plab ijodkorlar yetishib chiqishiga hissa qo'shdi, yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatib, ularga journalistika

BO'LIB.

O'ZBEKISTON JURNALISTLAR YUYUSHMASI VILOYAT BO'LIB.

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Zayniddinov Taxir Ruzikulovichga (2022-yil 1-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisrovna notarial idorasida marhum Xaydarova Nigora Kadirkulovnaga (2022-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Saidova Zarina Xisrovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Maximov Abdusaloma (2014-yil 21-novabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Buyuk Ispak ko'chasi, 1, 200-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Gulyamov Nemat Karimovicha (2012-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Buyuk Ispak ko'chasi, 1, 200-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich

MILLAT QADDINI BUKMANG!



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Avvaliga qizlarimning o'qishini uymizga eng yaqin yoki yaqinroq bo'lgan maktablardan biriga ko'chrimoqchi bo'dik. Bir nechta maktablarning shart-sharoiti bilan yaqindan tanishdik. Ma'lum bo'lismicha, biz ko'chib o'tgan hududda so'ngi to'rt yil ichida yuzga yaqin ko'p qavatlari turarjoy binolari qurilgan, hududda istiqomat qilayotgan aholining soni keskin oshgan, maktabda o'qiydigan o'quchilarining soni bir necha barobar ko'paygan, amma hanuzgacha birorta yangi maktab qurilib, foydalanishga topshirilmagan ekan.

Sobiq sho'ro zamonda qurilgan mavjud maktablarning har bir sinfida esa 45-46 nafardan o'qivchi o'qimoda. Hozir gap bu haqda emas. Bu endi alohida mavzu. Holatni o'rganib chiqqach, qizlarimni, garchi uzoq bo'lsa-da, o'zlari o'qib turgan maktabda qoldirishga qaror qildik.

Shunday qilib, har kuni tongda ertalabki sменада, 2-sinfda o'qiyotgan qizimni maktabiga men eltadigan, tushda rafiqam tushki sменада 4 va 6-sinfarda o'qiydigan qizlarimni maktabga oborib, ertalabki sменадан чиқсан 2-sinfagi qizimni uya olib ketadigan, kechki payt esa men tushki sменадан чиқсан qizlarimni olib, uya qaytadigan bo'dik. Maktabga borish va kelishda qizlarimni o'quv qurollari va kitoblari solingen ryukzaklarini ko'tarib borib, ko'tarib kela boshladim. Ilk kunlardanoq diqqatimni tortgan narsa ryukzaklarning o'rligi bo'ldi. Avvaliga qizlarimga bugungi kun uchun kerak-nokerak kitoblarini o'quv qurollaringni solib, ryukzaklarningi o'qir qilgansizlar, deya tanbeh berdim. Qizlarim esa ryukzaklarimizda ortiqcha bitta qalam ham yo'q, deyishdi. Bu hol deyarli har kuni takrorlanardi. Keyin esa maktabga kirayotgan wa chiqayotgan o'quchilarining ryukzaklariga e'tibor qaratish boshladim. Kuzatish jarayoni ancha vaqt oldi. Kasbim shifokor bo'lgani, shifokor bo'lganda ham asosiy mutaxassisligim bolalar shifokori bo'lganligi yurdagi veznidan ryukzaklar bo'lalarning jismoniy ruhiy salomatligiga qanchalar zarar yetkazishi mumkinligi haqida o'yadim. Maktab o'quchilarining o'quv qurollari solingen ryukzaklarining vazni bo'yicha jahon ta'lim standartlariga ko'ra, o'qichining o'quv qurollari solingen ryukzagining o'rligi kichiki sind (1-2 sind) o'quchilar tana vaznining 5 foizidan, o'rta sind o'quchilar tana vaznining 7-10 foizidan, yuqori sind o'quchilar tana vaznining 10-15 foizidan oshmasligi shart qilib belgilangan.

O'quchilar nechanchi sindfa o'qishiga ko'ra, belgilangan me'yor ko'rashchilar esa quyidagicha:

1-2-sinflar uchun ryukzak o'rligi 1,5 kilogramdan;
3-4-sinflar uchun 2 kilogramdan;
5-6-sinflar uchun 2,5 kilogramdan;
7-8-sinflar uchun 3,5 kilogramdan;
9-11-sinflar uchun esa 4 kilogramdan oshmasligi kerakligi qat'iy me'yor chegarasi qilib belgilangan.



Endi shu ryukzakdagagi darsliklarning sof o'rligini o'chaganimda har bir fan uchun tutilgan daftarlari bilan birga 1950 gramni tashkil qildi. Bu bir kunda dars jadvalida belgilangan ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, musiqa va ingliz tili kitoblari majmui. Men ryukzakni taroziqa qo'yan paytimda qizimning sunv idishi bo'sh edi. Demak, sunv idishida 250 millilitr suv solinsa, ryukzakning umumiyo o'rligi 3 kilogramni tashkil qildi. 4 va 6-sinfda o'qiydigan qizlarimning ryukzaklarining o'rtacha o'rligi 3,5, 5 kilogramdan, 5,5 kilogramgacha bo'lgan vaznni tashkil qildi. Bu ham belgilangan me'yor chegarasidan ancha baland. Endi bu o'rlikni o'qivchi kun mobaynida qancha payt ko'tarib yurishini, uydan maktabgacha bo'lgan masofani, maktabdagagi yuqori qavatda o'qishi va har bir qavatda yelkasidagi yuk o'rligini gravitatsion qonun bo'yicha ustama vazn olishini hisobga oling.

Bundan tashqari, qizlarim har biri hafthaning ikki yoki uch kundi jismoniy tarbiya dars mashg'uloti uchun sport kiyimini ham olib borishadi. Demak, hafthaning yarmida nafaqat yelkasida me'yor chegarasidan ancha o'g'ri bo'lgan ryukzagi, qolaversa, qo'liدا sport kiyimlari solingen yana bitta xaltasi bo'ladi.

Tibbyi nuqtai nazardan olib qaralganda, bola organizmi kattallari organizmidan farq qilib, ularning a'zo va to'qimalarida, xususan, suyak tarkibida suvning miqdori ko'proq bo'ladi. Qolaversa, bolalarda suyaklanish jarayonining faol davri aynan maktab yoshiga to'g'ri keladi. Bola organizmi o'sishda davron etar ekan, suyaklar-dagi tog'ay to'qima asta-sekinlik bilan suyak to'qimasiga aylanib boradi. Ya'ni, bolalarning suyagi yumshod bo'ladi. Suyaklanish jarayoni faol kechayotgan paytda suyakkak tushadigan ortiqcha yuylama suyak shaklini o'zgartirib, turli xildagi suyak deformatsiyalarini keltirib chiqaradi. Ryukzakning yelkaga osilishi ni nobatda olsak, umumiyoq o'rlikning katta qismi umurtqa pog'onasiga, yana bir qismi kurak suyagiga, qolgan qismi esa o'mrov, to'sh va qovurg'a suyakliga tushadi.

Og'ir ryukzakni ko'tarib yurgan bolada o'g'rik bola qomatinini orqaga tortishi tufayli bola qaddini majburan

oldinga tortishga harakat qiladi. Bunda bo'yin umurtqalarida oldinga egilish burchagi oshadi. Bo'yin umurtqalarining yon o'siglari bilan bosch miyani oziqlantiruvchi yirik arterial qon tomiri o'tgan. Bo'yin umurtqalarining oldinga egilish burchagi o'zgarganda ana shu arteriyadagi qon oqimi o'zgarib, bosch miyada sekin rivojanuvchi qon aylanish buzilishi paydo bo'ladi, natijada esa bosch miya gipotrofysi va ensefalopatiyalar rivojanidi.

Og'ir ryukzak kurak suyaklari va qovurg'alarni bosishi hisobidan bola erkin nafas ola olmaydi va natijada qon tarkibidagi kislordaning porsial bosimi pasayib boraveradi. Karbonat angidridni esa aksincha, oshib boradi.

Ryukzakning o'rligi oqibatida:
- organizmdagi barcha a'zo va to'qimalarda sekin rivojanuvchi distrofik o'zgarishlar yuzaga keladi;

- umurtqa pog'onasining ko'krak qismidagi kifojni kuchaytirib, skolioz holatini paydo qildi;

- bel lordozini oshiradi;

- chanoq suyagiga tushadigan og'irlilik tayanch nuqtalari o'zgarib, bel-chanoq sohasida o'riq va harakat cheklanishni, umurtqa pog'onasidagi umurtqalar orasidagi diskni yassilantirib, protroziya holatini yuzaga keltiradi;

- bolaning to'sh-o'mrov suyaklari deformatsiya paydo bo'lishi sabab bo'ladi;

- tana va umurtqaga tushgan og'irlilik oyoq suyaklariga o'tkazilib, son va boldir suyaklariga varusli va valgusli deformatsiyalarini chaqiradi;

- o'qichining borgan sari qomati va bo'y o'sishida jiddiy o'zgarishlar kuzatilib, qaddi past va buzik bo'lub boradi;

- ichki a'zolari, bosch miya faoliyatida sekin rivojanuvchi kasalliklar paydo bo'ladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, organizmida kalsisi elementi yetishmovchiligi bo'lgan bolalar jami bolalarning 8-10 foizini (bu rivojlangan mamlakatlarda, bizdagi statistika bundan ham ayanchli bo'lishi mumkin) tashkil qildi. Bolalarda kalsisi elementi yetishmaslidan esa raxit kasalligi paydo bo'ladi. Raxit bilan kasallangan bolalarda suyak sog'iom bolalarga nisbatan yumshoq va egilluvchan bo'ladi.

Endi tasavvur qilib ko'ring, og'ir ryukzaklarni qanchadan-qancha raxiting yashirin, engil va o'rta og'ir darajalari bilan kasallangan bolalar ko'tarib yuribdi. Bu esa yuqorida zikr qilingan suyak va qomat shakli o'zgarishlarining yanada yaqqolroq namoyon bo'lishi sabab bo'ladi.

Shu o'rinda respublikamizda-gi Maktab va maktabgacha ta'lim hamda Sog'liqni saqlash vazirliklari qaydiga savollar bilan murojaat qilmoqchiman:

Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan jahon ta'lim standartlari andazasiga ko'ra, o'qichining o'quv qurollari shakli, vazni va ryukzaklarning umumiyo o'rligini me'yor chegaralari to'g'risida o'qichilarining yoshi va simfi tofasida Milliy standartlar ishlab chiqilganmi?

Bizdagi o'quv adapbiyotlarining shakli va vazni qaysi me'yor ko'rsatkichlariga ko'relbelgilangan?

Keyingi savollarim Sog'liqni saqlash vazirligining shu'balariga tegishli.

Respublikada o'quchvi bolalar o'rtaida yoshga bog'liq holda antropometrik ko'rsatkichlar tizimli ravishda monitoring qilinadimi?

O'qichuning ryukzaklarning o'rligini vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan biror bir me'yori hujjat nazorat qiladimi?

Maktab o'quchilarining periferik qon tarkibidagi kalsisi elementi miqdorini mutazam va tizimli ravishda monitoring qilish va raxit kasalligiga chalinishining aniq statistik ma'lumotlari o'rganiganmi?

Agar men yoritgan muammo allaqachon o'rganilgan bo'lsa, aniqlangan kamchiliklarni nimalardan iborat va bu kamchiliklarni bartaraf qilishda qanday choralar va amaliy harakatlar boshlaniga tushadi?

Hurnmatli ota-onalar, farzandning ryukzagining o'rligini bilasizmi?

Orifjon KOMILOV.

↓ "Zarafshon" gazetasining 110 yilligi oldidan

Ushbu surat 1960-yillar boshida olingen. Unda "Lenin yo'lli" (hozirgi "Zarafshon") gazetasining eng faol muxbirleri aks ettirilgan.

Yuqorida, chapdan - Sur'at Oripov, G'ulom Aliyev, Ahmadjon Muxtorov, Normurod Narzullayev, Ho-jiqurban Hamidov, Obloqul Usmonqulov;

Pastki qatorda, chapdan - Oqiljon Husanov, Quratilla Mizomov, Lutfulla Hamroyev, Ahad Tursunov, Mannob Najmiddinov, O'ktam Javlonov va boshqalar.



Samarqandlik mutarjim

Navoiy asarlarini olmon tiliga tarjima qilmoqda

O'tgan yili Alisher Navoiyning "Xamsa" asarining nemis tiliga tarjimasi bo'yicha yangi loyiha e'lon qilindi. Bu o'ta murakkab ilmiy-amaliy va ayni paytda ijodiy ishga qiziqadigan tarjimonlardan daf'atan xayolimga O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori Xurram Rahimov keldi. Bu hamkasbimiz bilan Toshkentdagi pedagogika institutining nemis tili fakultetida bir kursda o'qiganman.

U tilni Y.Kraus, D.Baklitskaya, R.Kremer kabi toshkentlik nemiszabon ustozlardan o'rganib, Moskva chet tillar pedagogika instituti professorlari sabog'ini olib, nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyati himoya qilgan olmonshunos olim. Moskva tarjimonlik matkabida o'qib, tarjima ilmini ham muhammal o'rgangan mutaxassis. Bu ishni aynan shu Xurram do'stimiz o'z shogirdlari bilan birligda eplaydi, deb o'yladim. Menimcha, u shu yo'nalishda ancha-muncha tajriba ham ottirishga ulgurdi. Shu paytg'acha ikki yuzga yaqin nemischa o'zbekcha, saksondan ortiq o'zbekcha-nemischa turli janrlarga mansub asarlar tarjimalarini O'zbekiston va Germaniyada chop ettirib, tarjima mahoratini egallagan mutarjim sifatida tanildi.

2021-yil yanvar oyida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi arafasida "Qaro ko'zim" nomli g'azali bilan ulug' o'zbek shoirining yuzga yaqin g'azallari Xurram Rahimovning tarjimasida nemis tilida chop etildi. Shu yilning o'zida bu tarjimalar Germaniyaning Berlin va Frayburg shaharlar nashriyotlarida to'dirigan holda qayta nashr etildi.

Tarjima nazariyasida tarjima antonimiyatlari, jumladan, tarjima faqat chet tillardan ona tiliga amalga oshiriladi, tarjima ona tilidan chet tillarga ham bo'lishi mumkin degan bir-biriga zid qarashlar bor. Fidoy olim o'zining tarjimonlik faoliyatini.

da tarjima mutarjimning ona tilidan chet tiliga ham amalga oshirilishi mumkinligini isbotladi. Ayniqsa, she'r tarjimasida bu ko'pchilikning tasavvuriga sig'maydigan holat. Olmon tilida she'r yozib yuradigan, davlat test markazining olmon tilidan o'tkazgan imtihonlarda eng yuqori ko'rsatkichga erishgan (150 baliq tizimdan 138 ball olgan) hamkasbimiz Xurram Rahimov ishni ham mahorat bilan uddalaganini olmoniyalik naviyoshunlar ham e'tirof etmoqdarlar.

G'azzallarni o'z ona tilida o'qigan Berlin erkin universiteti Turkologiya instituti professori Barbara Kelner-Haynkle xonim tarjimongacha shunday deb yozibdi: "Janob professor Rahimov, O'zbekiston elchixonasi yordamida kaminaga sizning Alisher Navoiy g'azallaridan qilgan tarjima kitobingiz yetib keldi. Buyuk o'zbek shoiri Navoiyning g'azallarini ilk bor ona tilimda o'qib, hayratga tushdim. Bu tarjimalar orqali biz olmoniyalik navoyishunlar Navoiyning yanada teranroq tushish boshladik. Shunday sermashaqqat ishni muvaffaqiyat bilan amalga oshiribsim, tabriklayman. Bu ishningiz har qancha humrat va e'tirofga loyiq ish bo'libdi". Berlindagi Humboldt universiteti o'qituvchisi, Abdulla Qodiriy asarlar olmoncha tarjimon Barno Aripova ham bu tarjimalarini o'qib, xursand bo'lganini ma'lum qilgan. Ana shunday tarjimalar bizning milliy adabiyotimizni dunyoga tanishiga arzilgulik ulushdir.

Jomboyda tug'ilib, poxtaxtda olmon tili va adabiyotidan talabalarga tal'im berayotgan hamkasbimiz Xurram Rahimov ayni paytda O'zbekiston nemis til o'qituvchilar assotsiatsiyasi raisi, Germaniya-O'zbekiston ilmiy jamiyatasi raisi va Frayburgda chiqiqadigan "Avicenna" ilmiy jurnalni bosh muharriri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosidir. U bundan buyon ham Alisher Navoiy g'azallari va hazratning shoh asari bo'lmish "Xamsa" dostonini olmon tiliga tarjima qilishini niyat qilib, yangi innovatsion loyihamalar ustida ishloqamoja.

Ibdulla ILYASOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti.

Tarbiya mutolaa bilan to'kis bo'ladi

Kitob – bilim bulog'i. Bu bu loqdan bahra olmagan inson johil bo'ladi. Shu bois jamiyatda kitobxonlik ommalashsa, jinoyat kamayadi. Ziyoli-kari ko'p yurta umuminsoniy qadriyatlar qaror topadi, turmush farovon bo'ladi.



Kimdir buni balandparvoz gap hisoblar. Hatto "Yana shu mavzum? Kitobshiz ham odam bo'lish mumkin-ku...", deguvchilar topiladi oramizda. Biroq men buning yurdunda emasligini o'z hayotim misolida ko'rganman. Kitoblar taqdirmi o'zgartirgan?

Bolalikda juda sho'x edim, agar boshqalarga ozor berishni shox'lik deb atash mumkin bo'lsa. Ayniqsa, sindoshim Anvar bu qiligidan juda ko'p jabr ko'rgan. Nima bo'ldi-yu, bir kuni ikkalazim sindfa yana jiqqamush bo'ldik. Bundan bezigan sindfa rahbarim dadamni chaqirtirdi. Garchi, maktabda o'zim dan "sher" yasab olgan bo'lsam-da, dadamning salobatidan juda qo'rgardim.

Dadam keldi, mening xulqim, barcha xurmacha qiliqlarim haqidagi xabar topdi. Maktabda indamagani uchun yuda obdon ta'zirimi yesam kerak, deb yurak yutib bordim. Ammo dadam menga bir

og'iz ham gapirmadi. O'sha kuni narsalarni yig'ishtririb, bobomnikiga qo'yib kelishdi. Shundan so'ng ancha vaqt bobom bilan yashadim.

Bobom nafaqadagi o'qituvchi edi. U yerga tez-tez boruska tursak-da, kutubxonasidagi kitoblarga e'tibor bermagan ekannan. Rangli, rangsiz, katta, kichik - yuzlab kitoblar mening ixtiyorimda bo'ldi. Bobom ikimiz shu kitoblarni mutolaa qilib, mazmunini muhokama qildik. Mutolada charchagan